



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI



**13-14  
MAY  
2022**

**“BOSHLANG‘ICH VA  
MAKTABGACHA TA‘LIM  
SIFATI VA SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH MUAMMOLARI:  
INNOVATSIYA, RAQAMLI  
TEXNOLOGIYALAR VA  
XALQARO  
TAJRIBALAR”**

**Respublika ilmiy-amaliy  
anjumani**

**Buxoro - 2022**



OPEN  ACCESS



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING  
PEDAGOGIKA INSTITUTI MAKTABGACHA TA‘LIM VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM  
NAZARIYASI VA METODIKASI KAFEDRALARI**

**“BOSHLANG‘ICH VA MAKTABGACHA TA‘LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH MUAMMOLARI: INNOVATSIYA, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA  
XALQARO TAJRIBALAR”**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI**

**2022-yil, 13-14 may**

**BUXORO- 2022**

### Ilmiy-amaliy anjumanning dasturiy qo‘mitasi

<b>O.H. Hamidov</b>	–	Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor, rais.
<b>M.I. Damonov</b>	–	Buxoro davlat universitetining Pedagogika institut direktori, pedagogikafanlari nomzodi, dotsent, rais
<b>Sh.N.Murodov</b>	–	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, f-m.f.d (PhD)dotsent, rais muovini;
<b>A.A. Ikramov</b>	–	IT, I va IPKTB bo‘limi boshlig‘i, p.f.f.d. (PhD), a‘zo;
<b>O.R.Avezov</b>	–	Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dekani, a‘zo;
<b>G.T. Boymurodova</b>	–	Maktabgacha ta‘lim kafedrası mudiri p.f.d (DSc), dotsent, a‘zo
<b>M.J. Saidova</b>	–	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD),dotsent, a‘zo;
<b>U.S. Amonov</b>	–	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD), a‘zo;
<b>N.T. Tosheva</b>	–	Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi, p.f.f.d. (PhD), dotsent, a‘zo;
<b>F.S. Safarov</b>	–	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.n., a‘zo;
<b>X.A. Hayitov</b>	–	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.f.d.(PhD), a‘zo;
<b>N.B. Adizova</b>	–	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD), a‘zo

### Ilmiy-amaliy anjumanning tashkiliy qo‘mitasi

<b>Sh.N. Murodov</b>	-	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha director o‘rinbosari, f-m.f.d (PhD)dotsent, rais muovini;
<b>A.A. Ikramov</b>	-	IT, I va IPKTB bo‘limi boshlig‘i, p.f.f.d. (PhD), a‘zo;
<b>G.T. Boymurodova</b>	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası mudiri p.f.d (DSc), dotsent, a‘zo
<b>M.J. Saidova</b>	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası mudiri, p.f.f.d. (PhD),dotsent, a‘zo;
<b>N.T. Tosheva</b>	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (PhD), a‘zo;
<b>N.B. Adizova</b>	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.f.d. (PhD),a‘zo;
<b>G.E. Saidova</b>	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası katta o‘qituvchisi, a‘zo;
<b>D.S.Do‘stova</b>	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
<b>M.N. O‘rinova</b>	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi, a‘zo;
<b>N.O‘. Xudoyberdiyeva</b>	-	Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o‘qituvchisi, kotib;
<b>G.D.Niyozova</b>	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi
<b>S.H. Ro‘ziyeva</b>	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi
<b>Z.M.Ashurova</b>	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi
<b>U.B.Muxsinova</b>	-	Maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

To‘plam O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-martdagi 101-F-sonli farmoyishida tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishi maqsadida 2022-yil 13-14-may kunlari Buxoro davlat universitetining pedagogika instituti maktabgacha ta‘lim va boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedralari hamkorligida **“Boshlang‘ich va maktabgacha ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish muammolari: innovatsiya, raqamli texnologiyalar va xalqaro tajribalar”** mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

#### Mas‘ul muharir:

M.J. Saidova pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

#### Taqrizchilar:

B.R. Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor

N.T. Tosheva, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

kunda mustaqillikka erishganimizdan so'ng ham birdek ahamiyatlidir. Yosh avlodning ma'naviy yuksalishida alohida o'ringa ega bo'lgan xalq maqollari kichkintoylarimiz og'zaki va yozma nutqini o'stiruvchi muhim manba bo'lib asrlardan asrlarga osha yashayveradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Амонов У. С. Научный подход А. Фитрата к пословицам // Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
2. O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. *American journal of social and humanitarian research* 3 (No. 1), 546-550
3. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.
4. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
5. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //European research. – 2020. – С. 132-134.
6. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
7. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitological approach. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* <https://saarj.com.2020>. 321-326.
8. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat - hazrati Xizr! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
9. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel " Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*
10. Xudoyberdiyeva N. Abdulla Qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 Nodira Xudoyberdiyeva, BuxDU o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2022.
11. Omonulla Madayev, Tojixon Sobitova, O'zbek xalq poetik ijodi. Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 2010. - 33-34-betlar.
12. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-sinf uchun darslik, Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 50-bet.
13. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi, 2-sinf uchun darslik, Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 77-bet.
14. M.Umarova, X.Xamrakulova, R.Tojiboyeva. "O'qish", 3-sinf uchun darslik, Toshkent, "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – 15-bet.
15. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov. O'qish", 4-sinf uchun darslik, Toshkent, "Yangiyo'l poligraf servis" nashriyoti, 2017. – 80-bet.

#### **EGALIK VA SHAXS-SON QO'SHIMCHALARINI O'RGATISHDA SO'ZNI TEJAB ISHLATISHNI O'RGATISH USULLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567443>

**Safarov Firuz Sulaymonovich,**

*BuxDU o'zbek tilshunosligikafedrasi doktoranti*

**Haydarova Adiba Anvarovna,**

*BuxDUPI 1-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Maqolada o'zbek tili grammatik qurilishining bosh xususiyati – tejamkorlik hamda boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'zni tejab ishlatishni o'rgatish usullari haqida so'z boradi.

**Tayanch so'zlar:** tejamkorlik, o'zbek tili grammatik qurilishi, egalik va shaxs-son qo'shimchalari, ma'nodoshlik, so'z va qo'shimchalarni tejab ishlatishga doir topshiriqlar.

Sho'ro davrida o'zbek tilining grammatik qurilishi rus tili grammatikasi qolip va andozalari asosida o'rganildi. Natijada o'zbek tili grammatikasining o'ziga xos xususiyati yoki e'tibordan chetda qoldi yoki rus tiliga xos xususiyat o'zbek tiliga ko'chirildi. O'zbek tili grammatik qurilishining bosh xususiyati tejamkorlik bo'lib tejamkorlik deganda eng avvalo gap, matnda so'z va qo'shimchani tejab ishlatish nazarda tutiladi. Biroq amaldagi oliy o'quv yurti va o'rta maktab ona tili darsliklarida til hodisalari talqinida tejamkorlik haqida ma'lumot berilmagan. Natijada radio, televideniye, matbuotdagi nutq noo'rin, noto'g'ri qo'llanayotgan so'z va qo'shimcha bilan to'lib ketdi. Bu holni madaniy o'simlikka zarpechak chirmashib olishiga o'xshatish mumkin. Zarpechakdan xalos qilinmasa o'simlik sarg'ayib, bora-bora quriganidek, ortiqcha unsurlardan tozalanmasa, tilning ham sofligiga putur yetib, joziba, ta'sir kuchi zaiflashib ko'rki



yo'qoladi. Buning oldini olish uchun o'zbek tili grammatik hodisalarni tejamkorlik asosida talqin qilish va bu talqinlarni maktab ona tili darsliklariga kiritish zarur. Boshlang'ich va yuqori sinf ona tili darslarida shaxs-son, egalik umuman barcha grammatik hodisani o'rgatishda tejamkorlik haqida ma'lumot berilsa o'quvchilar o'z nutqida so'z va qo'shimchani ortiqcha, noo'rin qo'llamaydigan bo'ladi. Bu esa tilimiz sofligiga xizmat qiladi.

Istiqlol sharofati bilan til siyosati o'zgardi. Ona tilimizga huquqiy va siyosiy erk berildi. Endigi vazifa ruhni tutqunlik, qullik asoratidan qutqarishdir. Tilshunos, til muallimi shuni teran anglab, ona tilimizning xususiyatini o'zi o'rganmog'i hamda yosh avlodga o'rgatmog'i lozim. Bu murakkab vazifani muvaffaqiyatli hal qilish ko'p jihatdan o'zbek tili grammatik qurilishining bosh xususiyatini to'g'ri belgilashga bog'liq. Bosh xususiyat aniqlangach, unga asoslanib til sistemasi unsurlarining struktur- semantik-funksional xususiyati, boshqacha aytganda shakli, mazmuni va qo'llanishini to'g'ri talqin qilish imkoni tug'iladi. Tilshunos G'ani Zikrillayev shunday deb yozadi: An'anaviy, struktur va sistem tilshunoslik yutuqlariga asoslanib ona tili sistemasining eng muhim belgilarini umumlashirish natijasida o'zbek tili grammatik qurilishining bosh xususiyatini tejamkorlik deb ataymiz. Tejamkorlik deganda eng avvalo gapda so'z va qo'shimchani tejab ishlatish nazarda tutiladi [17, 57].

Egalik qo'shimchalari 4-sinf ona tili darsligida "Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi" nomi bilan alohida mavzu qilib kiritilgan. Darslikdagi egalik qo'shimchalarining berilishida bir nechta e'tirozli nuqta mavjud:

1. Egalik qo'shimchalari son ma'nosiga ko'ra 2 ga ajratiladi: *-m, -im, -ng, -ing, -i, -si* egalik qo'shimchalari birlik ma'nosini bildiradi. *-imiz, -miz, -ingiz, -ngiz, -(lar)i* egalik qo'shimchalari ko'plik ma'nosini bildiradi (27, 72). Vaholanki, egalik qo'shimchalari son ma'nosiga munosabatiga ko'ra G'. Zikrillayev to'g'ri ko'rsatganidek 3 ga bo'linadi: *-(i) m, -(i)ng* birlikni, *-(i) miz* ko'plikni bildirib, *-(i)ngiz, -(s)i* qo'shimchalari ikkala songa ham betaraf. Masalan, Ukangnitebratib tur gapida *-ng*, qo'shimchasi ukaning bir kishiga tegishli ekanligini bildiriyapti. Maktabimizga ota-onalarni, yozuvchi hakim Nazirni taklif qildik gapida *-imiz* qo'shimchasi maktabning ko'p kishiga tegishli ekanligini bildirgan.

Ta'kid nazarda tutilganidan quyidagi baytda kishilik olmoshini noo'rin qo'llangan deb bo'lmaydi: Keng paxta maydon.

Mening Vatanim (Q.Hikmat).

Kishilik olmoshining bosh kelishikda qo'llanishi eganing ta'kidlab-ta'kidlanmasligi bilan bog'liq. Ega ta'kidlansa, ajratib ko'rsatilsa, olmosh qo'llanadi: Men shashkachilar to'garagiga a'zoman. Karima, sen ham shu to'garakka a'zo bo'lasanmi?

Ta'kid nazarda tutilmasa olmosh tejalib egani ifodalash uchun fe'ning shaxs va son hurmat qo'shimchasi yetarli bo'ladi. Ana shunga yetarli e'tibor berilmaganidan yuqori sinf darsliklaridek yuzlab o'rinda kishilik olmoshi ortiqcha qo'llangan: Biz gulxan atrofida o'tirib ertangi kun rejalarini tuzdik (A.Aminov) Bolalarim, sizlar qo'rqmanglar, tashqariga chiqinglar! Tuzgan gaplaringizni yozing. Siz qanday gaplarni yozdingiz!

Egalik qo'shimchalarini qo'llashda tejamkorlik haqida o'quvchilarga dastlabki tushuncha berilgach, qaratqichli kishilik olmosharini tejab ishlatishga o'rgatishga o'tiladi. Buning uchun quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin.

O'quvchilarga qarashlilik ma'nosi faqat egalik qo'shimchasi va egalik qo'shimchasi va egalik qo'shimchasi hamda kishilik olmoshi bilan ifodalangan gaplar berilib, kishilik olmoshining nima uchun qo'llanganligi yoki qo'llanmaganligi so'raladi. Masalan, quyidagicha gaplar yozdirilishi mumkin:

1. Kapalak, kapalak, qanotlaring ipakday.
2. Bizning bobolarimiz kimlar bo'lgan?
3. Otam, ayniqsa, tok ishini mukammal bilardilar.
4. Bu kishi mening otam.
5. Maktabimizda shaxmat to'garagi bor.
6. Shaxmat to'garagi shaharda birinchi bo'lib bizning maktabimizda ochilgan.

O'quvchilarga bosh kelishikdagi kishilik olmoshi to'g'ri va noto'g'ri qo'llangan gaplar yozdiriladi, o'qituvchi o'quvchilarga qaysi gaplarda to'g'ri, qaysi gaplarda noto'g'ri qo'llanganini aniqlashni topshiradi. Misol uchun o'quvchilarga quyidagi gaplar yozdirilishi mumkin:

1. Biz gulxan atrofida o'tirib ertangi kun rejalarini tuzdik.
2. Men shashkachilar to'garagiga a'zoman. Karima, sen ham shu to'garakka a'zo bo'lasanmi?
3. Bobomdan eshitgan voqealarni men senga hikoya qilmoqchiman.
4. Sen bilasanmi, bir yilda nechta oy bor?
5. Men quyosh botishini ko'p kuzatganman.
6. Biz bir bosh husayni uzdik.
7. Sen ularga sut ber, boshini sila. Shunda kiyikchalar senga asta-sekin o'rganadi.

8. Tuzgan gaplaringizni yozing. Siz qanday gaplarni yozdingiz?
9. Sen bahorni sog'inmadingmi?
10. Katta bo'lsam, men shifokor bo'laman.

O'qituvchi yozdirilgan gaplarni o'quvchilar bilan birga tahlil qiladi. Bu gaplarda kishilik olmoshining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'llanganini aniqlash uchun gapni olmoshni tushurib qoldirgan holda o'qitib ko'rish usulidan foydalanish mumkin.

Yuqorida keltirilgan mashqlar bajarilgandan so'ng o'quvchilarni shaxs-son qo'shimchalarini qo'llashda tejamkorlikka o'rgatish uchun ularga mustaqil topshiriqlar berish mumkin. Bunday topshiriqlar ikki turli bo'lishi mumkin:

1. O'quvchilarga shaxs-son ma'nosi faqat shaxs-son qo'shimchasi va ham kishilik olmoshi, ham shaxs-son qo'shimchasi bilan ifodalangan gaplar tuzishni topshirish.
2. Gazeta, jurnallarda kishilik olmoshi ortiqcha, noo'rin qo'llangan gaplarni topib, yozib olishni topshirish.

Bunday mashqlar orqali 4-sinf o'quvchilari nutqda qaratqich va bosh kelishikdagi kishilik olmoshini to'g'ri ishlatishga o'rganadi. Natijada o'quvchilar ona tilini his qilish tuyg'usi shakllanadi va nutqning tozaligiga erishiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zikrillayev G'.N Fe'ning shaxs,son va hurmat kategoriyasi sistemasi. –Toshkent: “Fan”, 1990.– 169 b.
2. Zikrillayev G',N O'zbek tili morfologiyasi–Buxoro, 1994. 163b.
3. Zikrillayev G'.N . va b .Istiqlol va ona tili ta'limi. (To'plam). –Toshkent: “Fan”, 2000. – 112b.
4. Zikrillayev G'. N. Istiqlol va adabiy til. –Toshkent: “Fan”, 2004. – 120 b.
5. Safarov F. O'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni va uning lisoniy-nutqiy xususiyati. Nomzodlik dissertatsiyasi.Samarqand, 2004.
6. Амонов У. С. Научный подход А. Фитрата к пословицам // Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
7. O.R.Avezov. Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies. American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550
8. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.
9. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
10. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //european research. – 2020. – С. 132-134.
11. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter “Decimal” at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
12. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitological approach. *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal* <https://saarj.com>.2020. 321-326.
13. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat-hazrati xizr! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
14. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel" Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. *Middle European Scientific Bulletin*
15. Xudoyberdiyeva N. Abdulla Qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 Nodira Xudoyberdiyeva, BuxDU o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2022.

#### **MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SIFAT VA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING INNOVATSION VA INTEGRATSION YO'LLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567447>

**G'aybullayev Ruslan Asliddinovich,**  
*Buxoro davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda innovatsiyalarni maktabgacha va boshlang'ich ta'limda qay tarzda tashkil etish va rivojlantirish, qay yo'sinda innovatsiyalar orqali ta'lim sifatini xalqaro darajaga olib chiqish yo'llari haqida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** XXI asr farzandlari, motivatsiya, baliq skeleti.

Xalqaro jamiyat muhitidan shu narsa bizga malumki nazariyotda ilgari surilgan har qanday innovatsion

## MUNDARIJA:

<i>O.X.Xamidov.</i> TA'LIM SIFATI - O'ZGARISH VA RIVOJLANISH GAROVI .....	3
<i>Daminov Mirzohid Islomovich.</i> BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH – BUGUNNING DOLZAB MUAMMOSI .....	3
<i>Sh.N.Murodov.</i> TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH – DAVR TALABI .....	5
<i>E.M. Muxtorov.</i> MAKTABGACHA TA'LLIM TIZIMINI RIVOJLANTIIRISH STRATEGIYASI .....	6
<i>Abdullayeva Barno Sayfutdinovna.</i> B'LLAJAK TA'LLIMDA INNOVACIION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH .....	8
<i>F.R.Kadirova, D.M.Maxmudova.</i> MAKTABGACHA KATTA ESHDA GI BOLALARNI KITOBXONLIK KATAI'ERLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	10
<i>Adizov Baxtiyor Raxmonovich.</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING BILIMINI BAHOLASHDA XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARINING O'RNI .....	16
<i>Mamanazar Djumayev.</i> BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MILLIY O'QUV DASTURINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI .....	18
<i>Isxaqova Mavlyuda Raxmanovna.</i> ANDRAGOGIK YONDASUV ASOSIDA PEDAGOGLARNING MALAKASINI OSHIRISH - MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMI MODERNIZATSIYASINING .....	24
<i>Toshpo'latova M.I.</i> ILMIIY BILIMLAR INTEGRACIYASI TURLARI TAVSIFI .....	27
<i>D.N. Mustafoyeva.</i> TA'LIMDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR .....	29
<i>Xamroyev Abduraxmon.</i> MAKTABGACHA TA'LLIM TIZIMI – KELAJAK POYDEVORI .....	30
<i>Nafisa Abdullayeva.</i> MAKTABGACHA TA'LLIMGA KLASTERLI ENDA SHUV TATBIQ ETISH ORQALITA'LLIM SIFATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	32
<i>A.A. Ikromov.</i> MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING BILIM OLISHDAGI IMKONIYATLAR .....	33
<i>Alijon Xamroyev.</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH ZAMONAVIY TA'LIM KONSEPSIYASINING ASOSI .....	35
<i>A.V.Sadiqova.</i> PSIXOLOGO-PEDA GOGICHESKIE OSNOVY FORMIROVANIYA ELEMEN TOB KOMPIYUTERNOY GRAMOTNOSTI MLADSHIX SHKOLNIKOV .....	37
<i>O.R.Avezov.</i> KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI GIPERAKTIV BOLALAR BILAN ISHLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV .....	39
<i>Boymurodova Gulzoda Toshtemirovna.</i> RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TENDENCIYALARI .....	42
<i>M.J.Saidova.</i> MASOFAVIY TA'LIM VOSITASIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH .....	44
MAZMUNI .....	44
<b>1– SHO'BA: MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SIFATIVA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING INNOVATSION VA INTEGRATSION YO'LLARI .....</b>	<b>46</b>
<i>Tosheva Nurzoda Toshtemirovna, Sh.Murodova.</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANISHIDA O'QUV VAZIYATLARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI .....	46
<i>Masharipova Umida Abduvoxidovna.</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISINING INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATI MAZMUNI .....	48
<i>Jamilova Bashorat Sattorovna, N.A. Nishonova.</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QISH DARSLARIDA BADIY MATN TAHLILIGA O'RGATISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI .....	50
<i>Adizova Nodira Baxtiyorovna, Jamolova Lubat Ilhomovna.</i> FAOL TA'LIM ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH – TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA .....	52
<i>Yoqubova Bonuoy Alisher qizi.</i> BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI DARSLARINING SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI .....	54
<i>Hayitov Hamza Ahmadovich, Temirova MUqaddas Azamatovna.</i> DARSDA QUSHLAR OBRAZINI YORITISHDA INTERFAOL USULLARNING AHAMIYATI .....	56
<i>To'rayeva Sanobar Sulaymonovna.</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA FRAZEOLOGIK KOMPETENTSIYANISHAKLLANTIRISH USULLARI .....	57
<i>G.E.Saidova.</i> MANTIQUIY MASALALAR YECHISHDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI	

VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH .....	60
<i>Sidiqova Dilora Shavkatovna.</i> MASOFAVIY TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHITALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI.....	61
<i>iSaidova Mohinur Jonpo'latovna, Idiyeva Niginabonu Erkin qizi.</i> 2-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING O'QUVCHILARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINISHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI .....	64
<i>Nosirova Dilnoza Rizoqulovna.</i> ТВОРЧЕСКИЕ СПОСОБЫ ОБУЧЕНИЯ ЧАСТЯМ РЕЧИ НА УРОКАХ РУССКОГОЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ .....	67
<i>Habibova Kumushoy Hamidovna, Vihidova Saodat Husenovna.</i> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BOLALAR KITOBXONLIGININGO'RNI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....	69
<i>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Ubaydullayeva Sharofat.</i> BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ALGEBRAIKMATERIALLARNI O'RGATISHNING MUHIM VAZIFALARI.....	72
<i>Roziqova Ra'no Rustamovna.</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA SON TURKUMIGA OID KOMPETENSIYALAR .....	74
<i>M.M Qosimova, Z.U. Umonova.</i> BOSHLANG'ICH SINFDA MATEMATIKA O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARDA TEJAMKORLIK KO'NIKMASINI TARKIB TOPTIRISH .....	76
<i>M.M.Murodova.</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI TABIATSHUNOSLIK FANIBILAN INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH.....	79
<i>Sa'dullayeva Gulshod Nazrullayevna.</i> BOSHLANG'ICH SINFLARIDA INNOVATSION USLUBLARNI ISHLAB CHIQISH VAJORIY ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	82
<i>Boymurodova Sadoqat.</i> O'QISH DARSLARIDA AQLIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI .....	84
<i>Dustova Dildora Sobirjonovna, Abdullayev Sayfullo Fayzullayevich.</i> ВЗАИМОСВЯЗЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО И ХУДОЖЕСТВЕННО- ТВОРЧЕСКОГОКОМПОНЕНТА В СИСТЕМЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	86
<i>D.B.Axmedova, D.Nuritdinova.</i> XALQ MAQOLLARI – BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI NUTQINI BOYITUVCHI MUHIM MANBA .....	88
<i>Safarov Firuz Sulaymonovich, Hadarova Adiba Anvarovna.</i> EGALIK VA SHAXS-SON QO'SHIMCHALARINI O'RGATISHDA SO'ZNI TEJAB ISHLATISHNI O'RGATISH USULLARI .....	90
<i>G'aybullayev Ruslan Asliddinovich.</i> MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA SIFAT VA SAMARADORLIKNIOSHIRISHNING INNOVATSION VA INTEGRATSION YO'LLARI.....	92
<i>Nigora Safarova, Gulshan Abdullayeva.</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYASI.....	94
<i>Shozoda Qahorovna G'aporova.</i> BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA INOVATSION TEXNOLOGIYALARDANFOYDALANISH USULLARI .....	96
<i>Gulnora Normatova.</i> PEDAGOGNING INNOVATSION KOMPETENTLIGI TA'LIM MUHITI YANGILASHNING "RAG'BATLANTIRUVCHI" KUCHI SIFATIDA.....	98
<i>Zulayxo Samatovna Ro'ziyeva.</i> ТРЕБОВАНИЯ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ МЕТОДА ПРОЕКТОВ .....	99
<i>Hayitov Hamza Ahmadovich, Amonova Shaxlo Aminovna.</i> BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O'YIN VA INTERFAOLUSULLARDAN FOYDALANISH.....	102
<i>Adizova Nodira Baxtiyorovna, Nazarova Marjona Xodjiyevna.</i> YOSH O'QUVCHILARNING IJODIY QOBILiyATLARINI RIVOJLANTIRISH.....	104
<i>Nigora Safarova, Mexrigul Yusupova.</i> BOSHLANG'ICH SINF O'QISH KITOBLARIDAGI TOPISHMOQLARNINGMAVZUVIY MUNDARIJASI.....	106
<i>Oqila Tolibova.</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA TABIATSHUNOSLIK FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH .....	108
<i>Babayeva Shoirra Boymurodovna.</i> МОДЕЛИРОВАНИЕ СВЯЗНЫХ ТЕКСТОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКАНА ОСНОВЕ ТРАДИЦИОННЫХ ЦЕННОСТЕЙ РУССКОГО И УЗБЕКСКОГО НАРОДА.....	110
<i>Jo'rayeva Oliyа Usmonjon qizi.</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASAL JANRINI O'QITISH METODIKASI.....	112
<i>Safarov Firuz Sulaymonovich, Isamatova Nasiba Amrillo qizi.</i> BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI NUTQINI O'XSHATISHLAR BILANBOYITISH USULLARI .....	114
<i>Raximova Gularo Ibragimovna.</i> MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASASI PEDAGOGIK JAMOASINING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MATEMATIK TAFAKKURINI	